

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

TOSHKENT BOTANIKA BOG’IGA INTRODUKSIYA QILINGAN (*CORYLUS*) O’RMON YONG’OQ TURLARI

Muradova Ozoda Ikramovna

(Toshkent Botanika bog’i, mutaxassis)

muradovaozoda@mail.ru

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyoda aholi soning oshishi tufayli insoniyatning oziq-ovqatga bo‘lgan talabi yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa ushbu yo‘nalishda yetishtirish mumkin bo‘lgan o‘simliklarga ham talabning ortishiga olib keladi. Respublikamizda so‘nggi yillarda O‘rmon yong‘og‘i (*Corylus avellana* L.) ham istemol qilish maqsadida ekib o‘stirib kelinmoqda.

Kalit so‘zi: Toshkent Botanika bog‘i, introduksiya, o‘rmon yong‘og‘i, gullash, mevasi, sovuqqa va issiqqa chidamliligi.

Аннотация: Сегодня в связи с увеличением населения планеты потребность человека в продуктах питания увеличивается с каждым годом. Это приводит к увеличению спроса на растения, которые можно выращивать в этом направлении. В настоящее время в нашей стране культивируются Фундук (*Corylus avellana* L.) принадлежит к семейству листопадных кустарников, относящихся к семейству осоковых.

Ключевые слова: Ташкентский ботанический сад, интродукция, фундук обыкновенный, цветение, плоды, устойчивость к холоду и жаре.

Abstract: Today, due to the increase in the world's population, human demand for food increases every year. This leads to an increase in demand for plants that can be grown in this direction. Hazelnut (*Corylus avellana* L.) belongs to the family of deciduous shrubs belonging to the sedge family.

Key words: Tashkent Botanical Garden, introduction, common hazelnut, flowering, fruits, resistance to cold and heat.

Bugungi kunda dunyoda aholi soning oshishi tufayli insoniyatning oziq-ovqatga bo‘lgan talabi yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa ushbu yo‘nalishda yetishtirish mumkin bo‘lgan o‘simliklarga ham talabning ortishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida istemolbob bo‘lgan o‘simliklarni boshqa mintaqalarga introduksiya qilishni ham taqazo etadi. Introduksiya so‘zining ma‘nosi (lotincha: *introduction*-joriy qilish), o‘simliklar introduksiyasi-turli o‘simliklar turlari va navlarini o‘z tabiiy arealidan ilgari uchramagan hududlarga ko‘chirish. Introduksiya tushunchasi XIX-asr 2-yarmidan buyon qo‘llanib kelinmoqda.

O‘simliklar introduksiyasi nazariyasini shvetsariyalik botanik Augustin Pyramus de Candolle 1855-yilda asoslab bergan, Nikolay Vavilov o‘zi yaratgan ma‘daniy o‘simliklarning kelib chiqish markazlari nazariyasi asosida 1920-yilda introduksiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi [1].

Respublikamizda XX-asrning 30-yillarida tashkil etilgan ilmiy tashkilotlar ilmiy reja asosida jahon madaniy va yovvoyi o‘simliklarining xilma-xil turlarini yig‘ish hamda introduksiya ishlarini boshlangan.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Shular qatorida 1950-yilda asos solingan Toshkent Botanika bog`i dunyoning turli mintaqalaridan keltirilgan o`simliklarni mahalliy tuproq iqlim sharoitlariga moslashtirish, ko`kalamzorlashtirish uchun istiqbolli o`simliklarni urug`idan va vegetativ ko`paytirish, dorivor o`simliklar va mamlakatimizda xo`jalik ahamiyatiga ega bo`lgan daraxt, buta va o`t o`simliklarni ilmiy jihatdan o`rganish bo`yicha tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Hozirgi vaqtda yurtimizda oziq-ovqat sanoatida keng ishlatilib kelinayotgan yong`oqmevali daraxtlar turkumlaridan *Pista* (*Pistacia* L.), *Bodom* (*Amygdalus* L.), *Yong`oq* (*Júglans* L.) kabilar etishtirib kelinmoqda. Respublikamizda so`nggi yillarda O`rmon yong`og`i (*Corylus avellana* L.) ham istemol qilish maqsadida ekib o`stirib kelinmoqda. Shu sababdan ham chet el davlatlarida o`stirilayotgan va istemol uchun yaroqli bo`lgan O`rmon yong`og`i turlarini yurtimizga olib kelib hamda tabiiy sharoitlarimizga moslashtirish ishlari olib borilmoqda.

O`rmon yong`og`i (*Corylus*) – Qayindoshlar oilasiga mansub barg to`kuvchi butalar turkumiga kiradi. Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning o`rmon zonalarida 20 turi ma`lum. MDH davlatlarida 8 turi uchraydi, Ma`nosi “*Corylus*” yunoncha “*korys*” so`zidan kelib chiqqan, bu kapot degan ma`noni anglatadi, mevasi yoki yang`og`ining po`stlog`i bilan bog`liq. Italiyaning Neapol shahri yaqinidagi Avella shaharchasining nomiga qo`yilgan [2].

Toshkent Botanika bog`ida O`rmon yong`og`ining 9 ta turlari (Oddiy o`rmon yong`og`i – *Corylus avellana* L., Ayiq o`rmon yong`og`i – *Corylus colurna* L., Amerika o`rmon yong`og`i – *Corylus Americana* Marshall, Siebold o`rmon yong`og`i – *Corylus sieboldiana* Blume, Manchuriya o`rmon yong`og`i – *Corylus mandhurica* Maks.) o`z vatanidan olib kelinib moslashtirilgan va hozirgi kunda ularni ko`paytirish ishlari olib borilmoqda.

Oddiy o`rmon yong`og`i (*Corylus avellana* L.) Oilasi- *Corylaceae*, Turkumi – *Corylus*, turi - *avellana* L. Vatani – Yevropa hisoblanadi. Bu yong`oq MDHning Yevropa qismida tarqalgan va Kavkaz, Qrimda, ham uchraydi. O`zbekistonning tog`li hududlarida yaxshi o`sib hosil beradi (3).

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

O‘rmon yong‘og‘i urug‘lari Toshkent Botanika bog‘iga 24.08.1956 yili F.N. Rusonov tomonidan olib kelib ekilgan, nihollari 10.03.1957 yilda unub chiqqan. Bir yillik nihollari 1958 yilda Yevropa-Qrim–Kavkaz ekspozitsiyasiga ekilgan. Oddiy o‘rmon yong‘og‘i – bo‘yi 5 m ga yetib, daraxtning po‘stlog‘i silliq, kulrang, novdasi qo‘ng‘ir rangda, tukli, kurtaklari tuxumsimon. Barglari yumaloq, bazan uchli, tubi yuraksimon, cheti tishchali. Fevral oyida barg yozishdan oldin gullaydi. O‘rmon yong‘og‘i 80 yilgacha yashaydi, soyaga chidamli bo‘lib, baland daraxtlar tagida ham o‘saveradi. Ochiq yerlarda, nam tuproqli joylarda parhish yo‘li bilan va yer osti poyasidan ko‘payib, tez tarqaladi. Unumdor yerlarda yaxshi o‘sadi. Yong‘og‘i yangiligida qovurib iste‘mol qilinadi, servitamin, juda mazali ta‘mga ega. Uni ihota o‘rmon qatorlari barpo etish, tog‘ qiyaliklarining yuvilib ketishdan saqlash maqsadida ekish tavsiya etiladi [4]. (1-rasm)

1-rasm. Oddiy o‘rmon yong‘og‘i. **2-rasm.** Ayiq o‘rmon yong‘og‘i
Ayiq o‘rmon yong‘og‘i (*Corylus colurna* L.) Oilasi - Corylaceae, Turkumi –



Corylus, tur – *colurna* L. Vatani - Kavkaz hisoblanadi. Dengiz sathidan 1500-1800 m balandlikda o‘sadi. Daraxt noqulay ob-havo sharoitlariga chidamli, sovuqdan qo‘rqmaydi va yozgi issiqlikka yaxshi toqat qiladi. O‘z vatanida daraxt 200 yilgacha yashashi mumkin, mevalari ozuqaviy mahsulot bo‘lib, daraxt har yili meva beradi, ajoyib dekorativ xususiyatlarga ega.[5]

Ayiq o‘rmon yong‘og‘i Toshkent Botanika bog‘iga 1955 yili F.N.Rusonov tomonidan urug‘lari olib kelib ekilgan. Unub chiqqan nihollari 1959 yil kuz oyida Yevropa-Qrim–Kavkaz ekspozitsiyasiga ekilgan. Daraxtning balandligi 30 m. Urug‘idan ko‘payadi. Yong‘oqlari yoqimli ta‘mga ega va juda to‘yimli, tarkibida 62% gacha yog‘ mavjud. Ularning kamchiliklari kichik o‘lchamlari va qattiq qobig‘ida. Kuchli ildiz tizimiga ega bo‘lgani uchun tuproqni himoya qilishda ihota sifatida foydalanish mumkun (2-rasm).

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent Botanika bog'iga introduksiya qilingan O'rmon yong'og'i turlarini moslashuvchanligi yaxshi natijalarni ko'rsatgan, gullashi erta boshlanadi, meva hosil qilishi yaxshi, istemol qilish uchun yaroqli bo'lganligi sababli ham oziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun keng miqyosda etishtirish lozim. Shu bilan birga chidamli bo'lgan turlaridan Respublikamizning turli hududlarida ko'kalamzorlashtirish ishlarida ham foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.wikipedia>
2. <https://uz.warbletoncouncil.org>
3. Qayimov Q.A., Berdiyev E.T. va b. Dendrologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanma –T.: «Fan va texnologiya», 2014, -336 b.
4. Qayimov Q. A., Berdiyev E.T. Dendrologiya. T.-2012. 277-278 b.
5. <https://mikeleloconte.ru/uz>
6. Berdiev E.T. Manzarali Dendrologiya. T.-2019. 293-295 b.